



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№6

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

6-jild
6-son
Iyun, 2026

June, 2026
Volume 6
Number 6

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna- i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Menejment va marketing
Management and marketing
Менеджмент и маркетинг



BANK SOHASIDA RISKLARNI BOSHQARISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ В БАНКОВСКОЙ СФЕРЕ

Митиллаев Иброхимжон Турсунпулатович

LEGAL FOUNDATIONS OF RISK MANAGEMENT IN THE BANKING SECTOR

Ibrohimjon Tursunpulatovich Mitillayev

Received: June 19, 2026 Revised: June 26, 2026 Accepted: June 27, 2026 Published: June 30, 2026

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi bank tizimida risklarni boshqarishning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlari hamda Markaziy bank Boshqaruvining 2023-yil 18-apreldagi 3427-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Banklar va banklar guruhlarining risklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi nizomning mazmun-mohiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida banklarda risklarni boshqarish tizimining tashkiliy tuzilmasi, himoyaning uch chizig'i modeli, ichki nazorat mexanizmlari, risklarni baholash va monitoring qilish jarayonlari hamda stress-test amaliyotining ahamiyati o'rganilgan. Shuningdek, kredit va likvidlik risklarini boshqarishda stress-test ssenariylaridan foydalanishning banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari banklarda risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlash va xalqaro standartlarga mos boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: bank tizimi, risklarni boshqarish, bank risklari, kredit riski, likvidlik riski, operatsion risk, ichki nazorat, himoyaning uch chizig'i modeli, stress-test, Markaziy bank, banklar guruhi, moliyaviy barqarorlik, monitoring, risklarni baholash, risklarni kamaytirish, korporativ boshqaruv, bank nazorati, prudensial talablar.

Abstract. This article analyzes the legal foundations of risk management in the banking system of the Republic of Uzbekistan. In particular, the study examines the essence and significance of the Laws of the Republic of Uzbekistan "On the Central Bank of the Republic of Uzbekistan" and "On Banks and Banking Activities", as well as the Regulation "On Requirements for the Risk Management System of Banks and Banking Groups" approved by Resolution No. 3427 of the Board of the Central Bank dated April 18, 2023. The research investigates the organizational structure of risk management systems in banks, the three lines of defense model, internal control mechanisms, risk assessment and monitoring processes, and the importance of stress-testing practices. In addition, the role of stress-testing scenarios in managing credit and liquidity risks and ensuring the financial stability of banks is analyzed. The findings highlight the necessity of improving risk management systems in banks, strengthening financial security, and implementing management mechanisms that comply with international standards.

Keywords: banking system, risk management, banking risks, credit risk, liquidity risk, operational risk, internal control, three lines of defense model, stress testing, Central Bank, banking group, financial stability, monitoring, risk assessment, risk mitigation, corporate governance, banking supervision, prudential requirements.

Аннотация. В данной статье проанализированы правовые основы управления рисками в банковской системе Республики Узбекистан. В частности, раскрыты содержание и значение законов Республики Узбекистан «О Центральном банке Республики Узбекистан» и «О банках и банковской деятельности», а также Положения «О требованиях к системе управления рисками банков и банковских групп», утвержденного постановлением Правления Центрального банка № 3427 от 18 апреля 2023 года. В ходе исследования изучены организационная структура системы управления рисками в банках, модель трех линий защиты, механизмы внутреннего контроля, процессы оценки и мониторинга рисков, а также значение практики стресс-тестирования. Кроме того, проанализирована роль сценариев стресс-тестирования в управлении кредитными рисками и рисками ликвидности, а также в обеспечении финансовой устойчивости банков. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости совершенствования системы управления рисками в банках, укрепления финансовой безопасности и внедрения механизмов управления, соответствующих международным стандартам.



Ключевые слова: банковская система, управление рисками, банковские риски, кредитный риск, риск ликвидности, операционный риск, внутренний контроль, модель трех линий защиты, стресс-тестирование, Центральный банк, банковская группа, финансовая устойчивость, мониторинг, оценка рисков, минимизация рисков, корпоративное управление, банковский надзор, пруденциальные требования.

■ KIRISH

Bugungi kunda bank tizimining barqaror faoliyat yuritishi va moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda risklarni samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon moliya bozorlarida kuzatilayotgan globallashuv jarayonlari, iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda moliyaviy xizmatlar ko'lamining kengayishi banklar faoliyatida turli tavakkalchiliklarning yuzaga kelish ehtimolini oshirmoqda. Shu sababli bank risklarini aniqlash, baholash, monitoring qilish va ularni minimallashtirish masalalari zamonaviy bank menejmentining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [1].

Bank risklarini boshqarish tizimi moliyaviy vositachilik faoliyatining uzluksizligini ta'minlash, bank kapitalining yetarililigi saqlab qolish hamda mijozlar va investorlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Xalqaro amaliyotda risklarni boshqarish tizimi bank faoliyatining ajralmas qismi sifatida qaralib, uning samaradorligi moliyaviy barqarorlikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kredit, likvidlilik, bozor, operatsion va reputatsion risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish banklarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi [2].

O'zbekiston Respublikasida ham bank sektorini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarni joriy etish va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston-2030" strategiyasida bank tizimining barqarorligini mustahkamlash, korporativ boshqaruvni rivojlantirish hamda prudensial nazorat mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [3]. Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida Markaziy bank tomonidan banklar va banklar guruhlarida risklarni boshqarish tizimiga qo'yiladigan zamonaviy talablar ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2023-yil 18-apreldagi 3427-son qarori bilan tasdiqlangan "Banklar va banklar guruhlarining risklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi nizom banklarda risklarni boshqarishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamladi. Mazkur nizomda risklarni boshqarish madaniyatini shakllantirish, ichki nazorat tizimini rivojlantirish, stress-testlarni muntazam o'tkazish hamda himoyaning uch chizig'i modelini joriy etish bo'yicha talablar belgilangan bo'lib, ular banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda [4].

Mazkur tadqiqotning maqsadi bank sohasida risklarni boshqarishning huquqiy asoslarini o'rganish, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish hamda risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari banklarda risklarni boshqarish

amaliyotini rivojlantirish va moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlashga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Bank risklarini boshqarish masalalari xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, ularning ilmiy qarashlari bank tizimi barqarorligini ta'minlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Hennie van Greuning va Sonja Brajovic Bratanovic o'zlarining "Analyzing Banking Risk: A Framework for Assessing Corporate Governance and Risk Management" asarida bank risklarini boshqarish tizimi bankning moliyaviy barqarorligi va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini ta'kidlaydilar. Mualliflarning fikricha, risklarni aniqlash, baholash va nazorat qilish jarayonlari korporativ boshqaruv tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bank faoliyatining barcha darajalarida amalga oshirilishi zarur [1].

Anthony Saunders va Marcia Millon Cornett "Financial Institutions Management: A Risk Management Approach" nomli asarida moliyaviy institutlar faoliyatida kredit, likvidlilik, foiz stavkasi va operatsion risklarning o'rnini hamda ularni boshqarish mexanizmlarini tadqiq qilganlar. Ularning fikricha, zamonaviy bank menejmentining asosiy vazifasi tavakkalchilik va daromadlilik o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlashdan iboratdir [2].

Frederic S. Mishkin "The Economics of Money, Banking and Financial Markets" asarida banklar faoliyatidagi risklarni axborot asimmetriyasi, noaniqlik va moliyaviy bozorlarning o'zgaruvchanligi bilan bog'laydi. Olimning ta'kidlashicha, bank nazorati va prudensial tartibga solish mexanizmlarining samarali tashkil etilishi moliyaviy inqirozlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Joel Bessis "Risk Management in Banking" asarida bank risklarini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilgan. Muallif kredit, bozor, likvidlilik va operatsion risklarni o'lchash hamda monitoring qilish usullarini yoritib, stress-testlash bank risklarini baholashning muhim vositasi ekanligini qayd etadi [4].

Bank risklarini boshqarishning huquqiy asoslari bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ham qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan "Banklar va banklar guruhlarining risklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi Nizomda risklarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi, himoyaning uch chizig'i modeli, stress-testlarni o'tkazish hamda ichki nazorat tizimini tashkil etish bo'yicha talablar belgilangan [5].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, bank risklarini samarali boshqarish banklarning moliyaviy barqarorligi, raqobatbardoshligi va uzoq



muddatli rivojlanishini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Shu bois risklarni boshqarish tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va amaldagi huquqiy mexanizmlarni rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qolmoqda.


■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bank sohasida risklarni boshqarishning huquqiy asoslarini o'rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish va ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasining bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlari, Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlari hamda risklarni boshqarish bo'yicha xalqaro tajribalar tahlil qilindi. Shuningdek, banklarda risklarni boshqarish tizimining tashkiliy tuzilmasi, ichki nazorat mexanizmlari va stress-test amaliyotlari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganildi. Olingan ma'lumotlar asosida bank risklarini boshqarishning amaldagi holati baholandi va mavjud muammolar aniqlanib, ularni takomillashtirish bo'yicha xulosalar shakllantirildi. Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalarning o'zaro qiyosiy tahlili amalga oshirildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

“O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi va “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-son Farmoni doirasida 2030 yilgacha mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish

strategiyasi asosida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi qarori bilan 2023 yil 18 aprelda №3427 "Banklar va banklar guruhlarining risklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risidagi nizomi" tasdiqlandi. Ushbu nizomga ko'ra, banklarda risklarni boshqarish tizimi quyidagi elementlarni o'z ichiga olishi zarur: risklarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi, risklarni boshqarish madaniyati, bankning ichki jarayonlari, hujjatlari va vositalari, shuningdek, risklarni boshqarish va hisobot tayyorlashga mo'ljallangan axborot tizimi". Bu elementlar bank risklarini samarali boshqarish va ularning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu Nizomning 4-bandiga muvofiq, risklarni boshqarishga mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmalar va ichki nazorat funksiyasini bajaruvchi bo'yicha bo'linmalar bank operatsion faoliyatidan ajratilishi kerak bunda risklarni baholashda va boshqarishda aniq manzilli reja qilishga erishiladi. Bundan tashqari, bank faoliyatining barcha yo'nalishlari va tashkiliy tuzilmasida sezilarli risklarni boshqarish qamrab olinishi lozim. Bu risklar xolisona va o'z vaqtida aniqlanishi, baholanishi va monitoring qilinishi, shuningdek, ularga oid hisobotlar tayyorlanishi va nazorat qilinishi hamda kamaytirilishi zarur. Bank xizmatlari uchun belgilangan narxlar esa, ushbu xizmatlar bilan bog'liq risklar va xarajatlarni hisobga olgan holda shakllantirilishi kerak. Risklarni boshqarish jarayonlarining to'liqligini va hujjatlashtirilishini ta'minlash ham muhimdir. Risklarni boshqarish tizimi himoyaning uch chizig'i metodiga asoslangan bo'lib, ushbu metodga muvofiq, risklarni boshqarish bo'yicha majburiyatlar bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari o'rtasida taqsimlanishi zarur.



1- rasm. Bank risklarini boshqarish usuli


Agar bank tijorat banklar guruhining bosh banki sifatida faoliyat yuritadigan bo'lsa, u holda guruhning konsolidatsiyalashgan moliyaviy va nazorat hisobotlarini shakllantirish hamda ushbu hisobotlarga tayangan holda xavflarni boshqarish faoliyatini amalga oshirish

majburiyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, kuzatuv kengashi xavflarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan ichki hujjatlarni tasdiqlashi talab etiladi. Bu jarayonlar banklar guruhining barqarorligini ta'minlash va risklarni samarali



boshqarishga yordam beradi. Bunday hujjatlar, shuningdek, risklarni aniqlash, baholash va monitoring qilish jarayonlarini yanada yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu ko'p omilli kompleks jarayon ma'lum axborotlar,


hujjatlarni tizimli ravishda shakllantirilishiga ham bog'liq bo'ladi. Shunga asoslangan holda ko'plab ekspertlarning fikrlarini umumlashtirish natijasida zaruriy hujjatlar kompleksi quyidagi rasmda ifodalangan.



2-rasm. Bank risklarni boshqarishni tashkil etishda zarur bo'lgan hujjatlar

Bankning stress-testdan o'tkazish tartibida quyidagi jihatlar aniqlanishi va har chorakda kamida bir marta amalga oshirilishi zarur: stress-testning maqsadlari va asosiy ko'rsatkichlari, sinov sharoitlari va ssenariylar,

o'tkazish metodologiyasi va usullari, olingan natijalarni tahlil qilish va hisobot tayyorlash, shuningdek natijalar asosida risklarni boshqarish strategiyalarini yangilash hisoblanadi.



3-rasm. Bank risklarni boshqarishda stress testdan o'tkazish model tartibi

Bank kredit riskini stress-testdan o'tkazishda quyidagi omillarni inobatga olish zarur: mamlakatning umumiy iqtisodiy holati, jumladan iqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayishi, iqtisodiyotning sohalar kesimidagi o'sish sur'atlarining susayishi hamda bankning ichki omillari. Bank likvidlik tavakkalchiligini stress-testdan o'tkazishda esa quyidagi ssenariylar qo'llanilishi lozim. Bunda mamlakat iqtisodiyotining barqaror holatida stressga sabab bo'luvchi vaziyatlar nazarda tutiladi. Ushbu ssenariylar doirasida aktivlar sifatining yomonlashuvi, majburiyatlarning konsentratsiyasining ortishi, yuqori likvidlikka ega aktivlar hajmining sezilarli darajada kamayishi, bank kredit reytingining pasayishi, axborot tizimlariga qilingan hujumlar, aksiyadorlar bilan bog'liq muammolar hamda mamlakat bank tizimidagi inqiroz oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan stress holatlari ko'zda tutilgan. Ushbu jihatlarni hisobga olish bankning xavflarni boshqarish tizimini yanada mustahkamlash hamda stress sharoitlariga puxta tayyorgarlik ko'rish imkonini yaratadi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bank sohasida risklarni samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida bank risklarini boshqarishning huquqiy asoslari so'nggi yillarda sezilarli darajada takomillashtirilib, xalqaro standartlarga mos mexanizmlar joriy etilmoqda. Xususan, Markaziy bank tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar banklarda risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va kamaytirish bo'yicha yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar banklarda himoyaning uch chizig'i modeli, ichki nazorat tizimi hamda stress-test amaliyotlarining joriy etilishi risklarni boshqarish samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, banklarning raqamli transformatsiyasi va moliyaviy xizmatlar ko'lamining kengayishi yangi turdagi risklarning yuzaga kelishiga sabab bo'layotgani risklarni boshqarish tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borishni talab etadi.

Kelgusida banklarda zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan risk-menejment tizimlarini rivojlantirish, stress-test metodologiyalarini yanada

takomillashtirish hamda xalqaro tajribalarni milliy amaliyotga keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa bank tizimining barqarorligini mustahkamlash, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Greuning Hennie van, Bratanovic Sonja Brajovic. Analyzing Banking Risk: A Framework for Assessing Corporate Governance and Risk Management. – 4th Edition. – Washington D.C.: World Bank Publications, 2020. – 456 p.
2. Saunders Anthony, Cornett Marcia Millon. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. – 10th Edition. – New York: McGraw-Hill Education, 2021. – 784 p.
3. Mishkin Frederic S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – 13th Edition. – New York: Pearson Education, 2022. – 720 p.
4. Bessis Joel. Risk Management in Banking. – 5th Edition. – Hoboken, New Jersey: John Wiley & Sons, 2015. – 976 p.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida. – Toshkent, 2023. – 56 b.
6. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-582-son. – Toshkent, 2019. – 35 b.
7. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-582-son. – Toshkent, 2019. – 48 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2023-yil 18-apreldagi 3427-son qarori bilan tasdiqlangan "Banklar va banklar guruhlarining risklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi Nizom. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2023. – 67 b.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich Qo'qon universiteti Andijon filiali Iqtisodiyot va moliya



kafedrasi i.i.f.d,(PhD) / Митиллаев Иброхимжон
Турсунпулатович PhD по экономическим наукам,
кафедра экономики и финансов, Андижанский
филиал Кокандского университета / Ibrohimjon
Tursunpulatovich Mitillayev PhD in Economics,

Department of Economics and Finance, Andijan Branch
of Kokand University

E-mail: ibr1980@mail.ru

ORCID: 0008-0009-6518-8710



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz